



GAPDA SINONIMLARNING QO'LLANISH USLUBI VA ULARNING XUSUSIYATI SINONIM IBORA VA QO'SHIMCHALAR USLUBIYATI

¹Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi,
1-bosqich talabalari,

²Zaripova Muxlisa Xamid qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar
fakulteti, O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi,
1-bosqich talabasi,

³Allaberganova Shoxida Shavkat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti,
Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi,
1-bosqich talabalari.

<https://www.doi.org/10.37547/ejsspc-v03-i02-p2-69>

ARTICLE INFO

Received: 16th February 2023

Accepted: 26th February 2023

Online: 27th February 2023

KEY WORDS

*Sinonim, ideografik, stilistik,
konstual, neytral, emotsional.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan biri hisoblangan sinonimlar haqida, ularning turlari haqida so'z yuritildi. Sinonimlarning gapda qo'llanish uslubi hamda ularning gapda qanday ma'noda kelganligi, sinonimlarning ma'no-mazmun darajasi yoritib berildi.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlaridan bo'lmish sinonimlar o'zbek tilida o'ziga xos xususiyatga egadir. Ular ma'nodosh so'zlar ham deyiladi. Ma'nodosh so'zlar bitta umumiy ma'noni ifodalaydigan ikki va undan ortiq so'zlardir. Talaffuzi va yozilishi har xil, ammo ma'nosi bir xil so'zlarga sinonimlar deyiladi. Sinonim so'zlar bir ma'noni har xil so'zlar bilan ifodalab, so'zning seyrini namoyish etishda va nutqni bezashda hamda gapning ta'sirchanligini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Masalan, U **basharasiga** tushgan qamchi zarbidan yiqildi. Uning quvnoq **chehrasi** suv betida qizga yanada yoqimli ko'rindi. Ushbu gaplardagi **chehra** va **bashara** so'zlari o'zaro sinonim hisoblanadi. Sinonim so'zlar bir umumiy ma'noni ifodalasa-da, ularning ma'nosi, ijobiy hamda salbiy bahoga egaligi, ma'lum bir uslubga xoslanishi bilan farqlanadi. Masalan; **shivirlamoq, gapirmoq, baqirmoq**, so'zlari **so'zlash** so'zining umumiy ma'nosi bilan bir xil bo'lsa-da, ular ovozning baland-pastligiga ko'ra farqlanadi. **To'ng'illamoq, ming'irlamoq, vaysamoq, javramoq** so'zlari ham **so'zlash** ma'nosi bilan umumiylik hosil qilib birlashsa ham, ulardan salbiy ma'noga egaligi bilan farqlanadi. Masalan; Zilola bugungi dars mavzusini chiroyli qilib **so'zladi**. Zilola bugungi dars mavzusini chiroyli qilib **vaysadi**. Ushbu gapdagi **so'zlamoq** va **vaysamoq** so'zlari ma'nosida umumiylik, ya'ni sinonim bo'lsa-da, ularning gapda qo'llanish uslubi o'ziga xos xususiyatga ega. 1-gapdagi so'zlamoq so'zi ijobiy bahoga ega, so'z seyrini hamda gapni bezab, ta'sirchan holda qo'llanyapti. 2-gapda esa **vaysamoq** so'zi **so'zlamoq** so'ziga sinonim bo'lsa-da, u gapga salbiy baho berib kelyapti. **Bayon etmoq** kabi so'zlar esa kitobiy uslubga xosligi bilan farqlanadi. **Yuz, oraz, ruxsor, uzor, chehra, bet, aft, bashara, turq** so'zlari o'zaro sinonim hisoblanadi. Ammo ularning orasida **oraz, uzor, ruxsor, chehra** so'zlari ijobiy baho, **oraz,**



uzor, ruxsor kabi so'zlarda esa badiiy uslubga xos belgi mavjud bo'lsa, **bet, aft, bashara, turq, nusxa** kabi so'zlarda esa salbiy baho munosabati mavjud va ularda bir-biriga nisbatan salbiylik kuchayib boraveradi. Masalan, **betga** nisbatan **aftning** salbiy ma'nosi kuchliroq, **turqda** esa hammasidan ham salbiy bahosi kuchliroqdir.

"Bir umumiy ma'nosi bilan o'zaro bog'lanuvchi so'zlar guruhi **sinonimik qator** deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorda bir so'z asosiy so'z hisoblanadi. Bu so'z barcha uslublarda qo'llana oladi, shuning uchun (bosh so'z), "neytral so'z", "betaraf so'z", "uslubiy neytral so'z", "dominanta" atamallari bilan nomlanadi. Masalan; **nazar solmoq, boqmoq, qaramoq** sinonimik qatorida bosh so'z **qaramoq; aft, bashara, chehra, oraz, ruxsor, yuz, turq** sinonimik qatorida bosh so'z **yuzdir**".ⁱ Sinonimik qatorda yuzning bosh, ya'ni dominanta so'zligining sababi shundan iboratki, ushbu so'zni nafaqat insonga nisbatan, balki hamma narsa uchun umumiy ma'noda foydalansa maqsadga muvofiqdir. Masalan, **aft, bashara, turq** so'zlarini inson uchun foydalanilsa, salbiy ma'no ya'ni uslubiy xatolik yuzaga keladi. Chunki biror bir insonga "Sizning **aftingiz** chiroyli ekan" yoki "Sizning **turqingiz** chiroyli ekan" deya **aft, turq, bashara** so'zlarini ularning sinonimi **yuz** so'zi o'rnida qo'llay olmaymiz. Albatta, bu o'rinda "Sizning **yuzingiz** chiroyli ekan" desa uslubiy jihatdan to'g'ri hamda maqsadga muvofiq desa bo'ladi. Badiiy adabiyotda qo'llaniladigan **oraz, ruxsor, uzor** so'zlari g'azal, ruboiylarda juda ko'p qo'llaniladi. Ammo ushbu so'zlarning **aft, turq, bashara** kabi sinonimlarini badiiy adabiyotda kamdan-kam uchratamiz. Deyarli ushbu so'zlar badiiy adabiyotda qo'llanilmaydi. Ushbu so'zlarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi ijodkorning mahoratiga bog'liq. Masalan; Alisher Navoiy ushbu baytda **oraz** so'zidan foydalangan:

Orazidek oydin erkonda gar etti ehtiyot,

Ro'zg'orimdek ham o'lg'onda qorong'u kelmadi.

Ushbu baytda shoir **oraz** so'zi o'rnida **yuz** sinonimini ishlatga ham bo'lar edi, ammo shoir badiiy mahoratidan kelib chiqqan holda g'azalning jozibador chiqishi uchun **oraz** so'zidan foydalanadi.

"Leksik sinonimiya leksemalarning bir xil ma'no anglatishiga ko'ra guruhlanishidir: **yelka, kift, o'miz** (birinchi guruh); **in, uya, oshyon** (ikkinchi guruh); **nur, shu'la, yog'du, ziyo** (uchinchi guruh) va boshqalar. Bunday guruhlar tilshunoslikda **sinonimik qatorlar** deb nomlanadi".ⁱⁱ Har qanday sinonimik qatorda so'zlarning ma'nolari bir xil, uslubiy bo'yoq, ya'ni uslubiy to'g'riligi va sinonim so'zlarning gapda qo'llanilish doirasi har xil. Har bir sinonim so'zlar bir xil ma'noni ifodalaydi, ammo ma'nosi bir xil bo'lgan taqdirda ham ularning o'zaro farqlanuvchi ma'nolari ham uchraydi. Masalan; **Erkin** so'zi dominanta so'z hisoblansa, erkin so'zining sinonimi **ozod** so'zida esa qandaydir ko'tarinki ruhni ifodalashda, badiiy uslubda ijodkorning ijodini, badiiy mahoratidan foydalangan holda ijodining jozibadorligini ifodalash uchun **hur** sinonimidan foydalanadi, **sarbast** sinonimi eskirgan hamda kitobiyga xos. Misol uchun: 1. Musaffo havoda **erkin** nafas olmoq. 2. Tug'ilgansan **ozod**, Mudom **ozod** bo'lib qol (Ruhlar isyoni); 3. Yashnagan el tillarda doston, Qutlug' nomi **hur** O'zbekiston (M.Sh); 4. Podshohning nikohida bo'lgan xotinlari posbonlar bilan uncha hisoblashmay, ko'pincha ularni qo'lga olib, **sarbast** yashaydilar. Birinchi gapda foydalanilgan **erkin** so'zi sinonimlar orasida dominanta so'z hisoblanadi. Ikkinchi gapda esa **ozod** so'zi gapdagi ruhiy ko'tarinkilikni ifodalagan. Uchinchi gapdagi **hur** sinonim so'zi ijodkorning badiiy mahoratini



ifodalagan holda badiiy adabiyotga xos so'z. To'rtinchi gapda esa **sarbast** so'zi gapda eskirgan hamda kitobiy holda ifodalangan. Ushbu sinonim so'zlar gapda bir xil ma'no ifodalagan, ammo ushbu so'zlarning gapdagi uslubiy bo'yoqdorligi, gapdagi qo'llanilish doirasi har xil ifodalangan.

"Ifoda semalarining har xilligidan kelib chiqib, leksik sinonimlar quyidagi turlarga ajratiladi:

1. **Ma'no sinonimlari(ideografik sinonimlar):** Bunday sinonimlar ma'no qirralari bilan farqlanadi. Masalan; **achchiqlanmoq, g'azablanmoq, qahrilanmoq** sinonimlari **"g'azabi kelmoq"** ma'nosi bilan bir sinonimik qatorga birlashadi, ammo ularda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emas, u **"achchiqlanmoq"**dan **"g'azablanmoq"**qa, **"g'azablanmoq"**dan **"qahrilanmoq"**qa qarab kuchayib boradi.

2. **Uslubiy sinonimlar(stilistik sinonimlar):** Bunday sinonimlarning leksik ma'nosi ijobiy yoki salbiy bo'yoqlar(uslubiy semalar) bilan qoplangan bo'ladi, ayni shu semalar sinonimlarning uslubiy vosita sifatidagi qiymatini belgilaydi. Masalan; **jilmaymoq, iljaymoq, irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq** leksemalarining barchasida bitta leksik ma'no – "ovoz chiqarmay miyig'ida kulish" hodisasini nomlash bor, ammo shu ma'no **"jilmaymoq"** leksemasida biroz ijobiy, **"iljaymoq"** leksemasida esa biroz salbiy bo'yoq bilan qoplangan, bu salbiy bo'yoq **"irjaymoq, tirjaymoq, ishshaymoq va irshaymoq"** leksemalarida yanada ortib boradi.

3. **Nutqiy sinonimlar** – nutqning u yoki bu turiga xoslanishi bilan o'zaro farqlanadigan sinonimlar. Masalan; **ozgina, picha, sal, xiyol, jinday, qittay, jichcha** qatoridagi ozgina leksemasi nutqning barcha ko'rinishlarida(adabiy nutqda ham, so'zlashuv nutqda ham) qo'llana olgani holda, **picha, xiyol, jinday, qittay, jichcha** leksemalari faqat so'zlashuv nutqiga xoslangandir".

Birinchi qoidadagi ma'no sinonimlarida sinonimlar gapda ma'no jihatdan alohida ajralib turadi. Bunda sinonim so'zlarning sinonimik qatorga birlashishi, ya'ni bir nechta sinonim so'z bitta ma'noga birlashishi, lekin ularning gapda shu ma'noni ifodalash darajasi bir xil emasligiga moyildir. Masalan; ma'no jihatdan **jilmaymoq** so'ziga nisbatan **iljaymoq** sinonimi kuchliroq, **iljaymoq** sinonimiga nisbatan **irjaymoq, irjaymoqqa** nisbatan **tirjaymoq, tirjaymoqqa** nisbatan **ishshaymoq** hamda **ishshaymoqqa** nisbatan **irshaymoq** sinonimlari kuchliroq ma'no ifodalab boradi. Ushbu guruhdagi sinonimlar ma'no farqlashda bitta ma'noni ifodalaydi, ammo ular gapda aynan shu ma'noda ifodalanish darajasi bir-biriga nisbatan kuchliroq tarzda ifodalanib boraveradi.

Ikkinchi qoida ya'ni Uslubiy sinonimlarda esa sinonim so'zlarning lug'aviy ma'nosi gapda yoki so'zning mustaqil holida ijobiy yoki salbiy ma'nolarda qo'llanganligini ifodalaydi. Masalan, **yuz, oraz, ruxsor, uzor, chehra** so'zlari ijobiy ma'noni ifodalasa, ushbu so'zlarning sinonimi bo'lgan **bet, aft, bashara, turq** so'zlari salbiy ma'no ifodalaydi. Uchinchi qoida Nutqiy sinonimlarda shaxsning so'zlayotgan nutqidagi sinonim so'zlarning adabiy yoki so'zlashuvligiga xoslanib, o'zaro bir-biridan farqlanadi. Bunda sinonim so'zlar adabiy nutqda, yo so'zlashuv nutqda qo'llanishi, yoki umuman olganda ikkalasida ham qo'llana oladigan sinonimlar sifatida o'zaro farqlanishi mumkin.

"Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o'zaro sinonim bo'lmagan leksemalarning ma'lum konekst doirasida (nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi. Masalan; **chinni**



va **kosa** so'zlarining leksik ma'nolari bir xil emas: **chinni** "**idish-tovoq, izolatsion materiallar yasash uchun ishlatiladigan oq loy**"ni, **kosa** esa "**piyoladan kattaroq idish**"ni ataydi. Biri "**material**"ni, ikkinchisi esa shu materialdan yasalgan "**idish**"ni anglatadi, shunga ko'ra ular sinonim hisoblanmaydi, ammo ayrim shevalarda **chinni** leksemasi "**kosa**" ma'nosida ham qo'llanadi. Shu shevaga xos kontekst ichida u **kosa** leksemasining sinonimiga aytiladi. Masalan; **Xoljonbika... xitoyi chinnida moy olib keldi**".

Kontekstual sinonimiya deganda shuni anglash mumkinki, so'zlarning bir-biri bilan o'zaro sinonim bo'lamagan leksemalarning ma'lum bir nutqning ichida sinonim bo'la olishidir. Nutq so'zlovchi o'z nutqida so'zlayotgan nutqi ma'nodor, jozibali chiqishi uchun sinonim so'zlardan foydalanadi. Bunda ma'nosi bir xil bo'lamagan so'zlarning kontekstda sinonim bo'la oladigan sinonim so'zlardan ham foydalanishi mumkin. Masalan; **muallif** so'zi kontekstda o'zaro sinonim bo'la oladigan so'z hisoblanadi. **Muallif** so'zining o'rnida kontekstda sinonim bo'lib kela oladigan so'zlar quyidagilardir: **yozuvchi, adib, hikoyanavis, olim, shoir**. Misol uchun: "Navoiy" romani **muallifi** kim? "Navoiy" romani O'zbekiston xalq **yozuvchisi** Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek tomonidan yozilgan. **Adibning** "Navoiy" romani 1942-yilda yozilgan. Abdulla Qahhor – mohir **hikoyanavis**. Usmon Nosir o'zbek adabiyotida yorqin va zabardast **shoir**lardan biri hisoblanadi. Ushbu gaplarda yozuvchi, adib, hikoyanavis, shoir so'zlari sinonim vazifasini bajargan bo'lsa-da, ularni alohida olib qaraganda sinonim so'zlar emas.

Sinonim so'zlar o'ziga xos xususiyatga ega va ular gapda boshqa so'zlarga nisbatan jozibador, emotsional darajada bo'yoqdorlik vazifasini bajaradi. Sinonim so'zlari bor til, albatta, boy til hisoblanadi. Chunki nutq so'zlovchi shaxs o'z nutqida bitta so'zdan foydalanibgina qolmay, balki ularning sinonimlaridan foydalansa nutqining go'zalligi, emotsional bo'yoqdorligi bilan o'zgalar nutqidan ajralib turadi. Boshqa nuqtayi nazardan o'ylab qaraganda nutqda bitta so'zdan foydalanish o'zbek tili so'z boyligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Nutq so'zlayotganda faqat bitta so'zdan foydalanmay, uning sinonim so'zlaridan foydalanilsa, albatta, o'zbek tili so'z boyligi, emotsional bo'yoqdorligi, nutqining jozibadorligi oshadi. Masalan; Chiroyli so'zining sinonimlar judayam ko'p. Ushbu so'zdan gapning o'zida ham foydalansa bo'ladi. Lekin bitta gapdan keyingi gaplarda faqat chiroyli so'zini emas, balki uning sinonimlarini o'rniga qo'yib foydalansa maqsadga muvofiq.

References:

1. Xolmonova.Z.T. "Tilshunoslikka kirish"; Toshkent-2007
2. H.Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili"; Toshkent – "Talqin" – 2005